

## MAHALLIY BYUDJETLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI

*Jo'rayev Rustam*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich magistratura tinglovchisi*

Jahonda byudjet-soliq tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri mahalliy byudjetlar daromadlar manbaini kengaytirish bo'lib hisoblanadi. Jahon iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda mahalliy byudjet daromadlar qismida yer, mulk va ko'chmas mulklardan olinadigan soliqlar asosiy ulushni tashkil qiladi. Ta'kidlash joizki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat byudjeti daromadlari tarkibida mahalliy byudjetlar daromadlari salmoqli ulushni egallaydi. Xususan, bu ko'rsatkich Yaponiyada 30%, Buyuk Britaniyada 33%, Avstriyada 30%, Fransiyada 38%, Portugaliyada 39%, Norvegiyada 58%, Lyuksemburgda 60% ni tashkil etadi<sup>20</sup>.

Mahalliy byudjet daromadlarini kengaytirish hamda soliq to'lovchilarni aniqlashtirish va unga nisbatan yondashuvlarni asoslangan holda amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mahalliy byudjetlarni moliyaviy barqarorligini oshirish mamlakat miqyosida bir xil xususiyatga ega bo'lmasligi mumkin, lekin hududiy nuqtayi nazardan o'zaro farqlanishi mavjud bo'ladi. Mahalliy byudjetlarning ijrosini ta'minlash va ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash moliyaviy strategiyaning muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash ikki jihatdan qaralishi mumkin. Birinchidan, daromadlar bazasining yaxshi shakllanganligi, ikkinchidan xarajatlarning barqarorligiga erishilishi bilan ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yilning 9-iyun kuni bo'lib o'tgan milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga doir dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash yo'nalishlarini sanab o'tdi. Yig'ilishda davlat rahbari yangicha yondashuv va instrumentlarni qo'llash orqali joriy yil iqtisodiyotda o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun barcha imkoniyatlar borligini ta'kidlab, shu boradagi 8 ta asosiy yo'nalishni ko'rsatib o'tdi. Mazkur farmon 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hamda mahalliy byudjetlarning daromadlari bazasini tubdan mustahkamlash, yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish, uy-joy, kommunal, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiyalash va texnik yangilash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishni so'zsiz ta'minlash yuzasidan mahalliy hokimiyat organlarining mustaqil ish olib borishi va mas'uliyatini oshirish maqsadida qabul qilindi.

Dos. N.Korotina mahalliy byudjetlar moliyaviy holatini baholashga nisbatan tahlil metodikasini taklif etadi. Unga ko'ra, ko'rsatkichlar beshta guruhga ajratib ko'rsatiladi,

<sup>20</sup> <https://internationalwealth.info/tax-planning/nalogi-v-2020-godu-analiz-fiskalnoj-politiki-v-raznyh-stranah>

ular[2]: balanslashtirilgan mahalliy byudjet ko'rsatkichlari, munitsipal tuzilmaning moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichlari, byudjet xarajatlari sohasida munitsipal byudjet siyosati yo'nalishlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlar, munitsipal tuzilmaning byudjeti barqarorligi ko'rsatkichlari, munitsipal tuzilmaning qarzidorlik ko'rsatkichlari.

Bundan tashqari iqtisodchi olim, A.Mamanazarov mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan. Uning fikriga ko'ra, byudjetning barqarorligi quyidagi ikki jihat bilan ifodalanishini qayd etib o'tadi. Birinchidan, bu byudjetning balanslashgan bo'lishi va taqchillik bo'lmasligini bildiradi; ikkinchidan, bu taqchillik bo'lganda ham uni bir me'yorda saqlanishini anglatishini ta'kidlab o'tadi[3].


Shuningdek, Z.Ro'ziyev mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirgan bo'lib, hududlarda miqyosida muammolarni o'rganib ularni quyidagicha tizimlashtirib beradi: birinchidan, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda soliqlarning yig'uvchanlik darajasi pastligi va soliq to'lovchilarning to'liq davlat ro'yxatiga olinmaganligi. Ikkinchidan, mahalliy moliya tarkibida mahalliy byudjet va korxonalar moliyasini shakllantirish bo'lib, boqimanda debitor-kreditor qarzidorliklar yildan-yilga oshib borayotganligi. Mahalliy korxonlarning qo'shimcha qiymat yaratishga yo'naltirilmaganligi, to'rtinchidan umumdavlat soliqlari bo'yicha tushumlardan ajratmalar normativini belgilash va mahalliy byudjetlarga dotatsiyalar ajratish bilan bog'liqligi qayd etib o'tiladi[4].

Bundan tashqari, A.Xayriddinov mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta'minlashda soliqlarning roli va ahamiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirib bergan, shuningdek mahalliy byudjetlar xarajatlari bir qismining dotatsiyalar hisobidan qoplanish darajasi orqali ifodalanuvchi ko'rsatkichi kabilarni keltirib o'tadi[5]. Sh.Qiyosov mahalliy byudjetlar daromadlarini ta'minlash muammolarini hal qilish maqsadida tabaqalashtirilgan daromad tushumlarini mahalliy hokimiyat organlariga quyidagi vakolatlarni berishni tavsiya etadi: "mintaqada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida tabiiy zaxiralardan foydalanish solig'i stavkalarini belgilash, imtiyozli soliq solishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash"[6].

Bu yo'nalishlarning birinchisi, iqtisodiyot va byudjet barqarorligini ta'minlash ekanligi ta'kidlanib, barcha sohalarga byudjet tushumi va xarajatlarini optimallashtirish topshirildi. Korxonalar faoliyatini qayta tiklash va soliq ma'muriyatchiligini yaxshilash hisobiga qo'shimcha daromadlarni ta'minlash, tashqi qarz bitimlarini tuzishda belgilangan cheklovdan oshmaslik bo'yicha ko'rsatma berildi. Bizningcha, mahalliy byudjetlarning moliyaviy strategiyasi samarali ishlashi ko'p jihatdan hududning moliyaviy potensialiga bog'liq hisoblanadi. Bu esa hozirda mavjud bo'lgan vertikal moliyaviy vakolatlarni gorizontaal xususiyatga o'tkazishni taqozo etadi. Ushbu holatning joriy etilmasligi moliyaviy mustaqillikni istiqbolini mavhumlashtiradi. Umuman olganda, mahalliy byudjetlarning moliyaviy strategiyasini shakllantirishning muhim omili bo'lib – moliyaviy mustaqillik hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining har bir bo'g'ini u yoki bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan turli pul

jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanishga qaratilgan o'ziga xos vazifalarni bajaradi.

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ifoda etuvchi ko'rsatkichlarni tizimlashtirib beradi. Ular quyidagilardir<sup>21</sup>:



### **1-rasm. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida tumanlar va shaharlar mahalliy byudjet daromadlarida byudjet tushimini ortishiga, balki mamlakat ishbarmonlik muhiti hamda investitsion jonlanishiga turtki bo'ladi. Bu borada davlat moliya organlari, investitsiya vazirligi organlari hamda moliya-kredit tashkilotlarining faoliyati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Haqiqatdan ham, byudjet "bu turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo'lib, u tegishli davlat yoki mahalliy hokmiyat tomonidan ishlab chiqilgan hamda taqsimlangan yuridik hujjatdan iborat" deb ta'rif berilishida aynan mahalliy byudjetlarning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Soliqlar tizimini takomillashtirish orqali byudjetlararo mutanosiblikka erishish, mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligiga erishish, shuningdek, ularning mustaqil fiskal siyosatini yuritishga oid qo'shimcha daromadlarini shakllantirish yo'nalishlarini takomillashtirish, byudjetlararo munosabatlarda soliqlarni ulushli tartibda taqsimlash yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "... hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish

<sup>21</sup> Ma'lumotlar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

uchun mahalliy byudjetlarning mablag‘lari yetarli emas”ligi, “.mahalliy hokimiyat idoralari uchun moliyaviy va boshqa imkoniyatlarni kengaytirish zarur”ligi, “... mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas’uliyatini qayta ko‘rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirishimiz lozim”ligi borasidagi fikrlari ushbu masalaga yanada oydinlik kiritadi [1]. Chunki bunday sharoitda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda solikli daromadlar bazasini mustahkamlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi va mazkur dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar:*

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.*
2. *Korotina N.Yu. Metodika analiza finansovogo sostoyaniya byudjetov munitsipal’nykh obrazovaniy//Buxgalterskiy uchet v byudjetnykh i nekommercheskix organizatsiyax. – M., 2014. – №17(353). – S.17-28.*
3. *Mamanazarov A.B. Mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish masalalari: i.f.n. ... avtoreferat. – T.: BMA. 2002. – 22 b.*
4. *Ro‘ziyev Z.I. Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish: i.f.n. avtoreferat. – T.: BMA. 2011. – 22 b.*
5. *Xayriddinov A.B. Mahalliy byudjetlar daromadlar bazalarining barqarorligini ta‘minlash yo‘llari: i.f.n. avtoreferat. – T.: BMA. 2011. – 22 b.*
6. *Qiyosov Sh. Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish muammolari//Moliya jurnali. –T.: 2014. -№1. – B. 36-40.*

## **МОЛИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ СУЎУРТА СОҲАСИГА ТАЪСИРИ**

*Икрамова К.*

*Ўзбекистон республикаси Банк-молия  
академияси магистранти*

Миллий молия бозорига янги технологияларнинг кириб келиши, соҳани рақамлаштирилиши унинг барча сегментларини қамраб олди, жумладан суғурта соҳасини ҳам. Ривожланаётган интернет ва рақамлаштириш муҳити нафақат суғурта хизматларининг ташқи қиёфасини ўзгартиради, шунингдек уни ривожлантирди, интернет-сотиш ёки онлайн савдо сегментини кенгайтди, бу эса суғурта маҳсулотларининг нархи пасайишига ва электрон тижорат савдонинг ўсишига олиб келди.

Ҳозирги кунда замонавий иқтисодиётнинг ўзига хос хусусиятларидан бири информацион технологияларидан кенг фойдаланишдир. Бундай технологиялар суғурта бозорида ҳам у ёки бу даражада қўлланила бошлади. Улардан фойдаланиш суғурта фаолиятидаги кўплаб бизнес-жараёнларнинг самарадорлигини сезиларли даражада оширишга олиб келмоқда.